



“Tasdiqlayman”

**Qarshi magistral kanalidan
foydalanish boshqarmasi boshlig'i**

I. Kurbanov

2022 yil

Texnik topshiriq

Qarshi tumanida joylashgan M 2-1 nasos stansiyasi va Nishon tumanida joylashgan M 2-2 nasos stansiyasi quvurlaridan chiqayotgan suv oqimini sarfini aniqlash uchun (7 dona) avtomatik moslamalarini o'rnatish.

Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi

Talimarjon shahri 2022 yil

Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan texnik topshiriq:

Ob'yekt nomi: Qarshi tumanida joylashgan M 2-1 nasos stansiyasi va Nishon tumanida joylashgan M 2-2 nasos stansiyasi quvurlaridan chiqayotgan suv oqimini sarfini aniqlash uchun (7 dona) avtomatik moslamalarini o'rnatish.

ENG YAXSHI ELEKTRON TAKLIFLARNI TANLOV ASOSIDA TANLAB OLISH UCHUN TEXNIK TOPSHIRIQ BARCHA TA'MIRLASH TASHKILOTLAR DIQQATIGA!!!

Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi

(Buyurtmachi tashkilot nomi)

(Manzil: Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Talimarjon shaxri Mustaqillik ko'chasi 5-uy.

Telefon: 75-512-67-09, 75-512-67-14)

ENG YAXSHI ELEKTRON TAKLIFLAR TANLOVINI E'LON QILADI

Ob'yektning boshlang'ich narxi: **253 652 958** so'm. (QQS bilan)

Ishlarni tugallash muddati: 20 kalendar ish kuni.

T/r	Texnik topshiriqni nomlanishi	Izoxlar
Taqdim etilgan xizmatlarning nomi va foydalanish maqsadi (mijoz qanday xizmatlarni bajarishi kerakligi haqida qisqacha tasnifi ko‘rsatgan holda).		
Qarshi tumanida joylashgan M 2-1 nasos stansiyasi va Nishon tumanida joylashgan M 2-2 nasos stansiyasi quvurlaridan chiqayotgan suv oqimini sarfini aniqlash uchun (7 dona) avtomatik moslamalarini o‘rnatish.		
Xizmatlar ro‘yxati va hajmi		
(Buyurtmachining ehtiyojlarini hisobga olgan holda Pudratchidan talab qilinadigan harakatlarning batafsil ro‘yxati)		
1	Qarshi tumanida joylashgan M 2-1 nasos stansiyasi va Nishon tumanida joylashgan M 2-2 nasos stansiyasi quvurlaridan chiqayotgan suv oqimini sarfini aniqlash uchun (7 dona) avtomatik moslamalarini o‘rnatish	Diametri 1220-1420 mmli flanesli ulanishlarda ultratovushli hisoblagichni o'rnatish (7 dona) 172,9 kishi soat.
		Vazni 20 kg gacha bo‘lgan o'rnatilgan qismlar (0,5911 tonna) 37,37 kishi soat.
		Shkafni o'rnatish, boshqarish va tartibga solish shkaflari (7 dona) 16,59 kishi soat.
		Kabel yotqizish (1100 metr) 161,7 kishi soat.
		Masofaviy boshqarish nazorat va boshqarish uskunalari tarmog‘ini roslash hisoblagich modem va boshqalar (7 dona) 224 kishi soat.
Tegishli ishlarni bajarish, tegishli xizmatlarni ko‘rsatish talabi (zarur tovarlarni, shu jumladan jihozlarni, sarf materiallari to‘plamini yetkazib berish, tasviriy materiallar bilan ta‘minlash, yetkazib berish, tushirish va boshqalar).		
Nº	Talablarning nomlanishi	Izohlar
1	Umumiy talablar	Soha bo‘yicha: energetik, elektrik, elektr sozlovchi, elektropayvandchi, muhandis-gidro-texnik, dasturchi malakasiga egaligi

		O'xshash ob'yektlarda ushbu yo'nalishlarda boy tajribaga ega bo'lishi Moliyaviy barqaror tashkilotlar (tanlov ob'jektini ta'mirlash ishlari qiymatining 10%i miqdorida hisob raqamida mablag' mavjudligi)
2	Xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchisi	Davlat xaridlari to'g'risidagi axborotdan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hajmda foydalanish Muayyan davlat xaridlari tartib-taomillari, ularni o'tkazish talablari va shartlari bo'yicha so'rovlar berish va tushuntirishlar olish. Xarid qilish tartib-taomillari buzilgan taqdirda davlat xaridlari natijalari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish Davlat xaridlari tartib-taomillarida ko'rsatilgan hollarda qonun hujjatlariga muvofiq takliflarga o'zgartishlar kiritish yoki ularni qaytarib olish huquqiga ega Davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi Davlat xaridlari to'g'risidagi hujjatlar talablariga muvofiq bo'lgan takliflar va hujjatlarni taqdim etishi hamda taqdim etilgan axborotning ishonchliligi uchun javobgar bo'lishi G'olib deb topilgan taqdirda davlat buyurtmachisi bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda shartnoma tuzishi shart
3	Malakaviy (tajriba) talablar	Ushbu yo'nalishda kamida 3 yillik ish tajribasiga egaligi to'g'risida ma'lumot Ishtirokchi xodimlarining ushbu ishlarni bajarishda maxsus ruxsat guvohnomasi mavjudligi
4	Kadrlar bilan ta'minlanganligi	Ishtirokchida suv oqimini aniqlash uchun avtomatik moslamalarini o'rnatish ishlarini bajarishda mehnat shartnomasiga ega bo'lgan malakali energetik, elektrik, elektr sozlovchi, elektropayvandchi, muhandis-gidrotexnik, dasturchi mutaxassislari mavjudligi va shu sohada yetarli tajribaga ega ekanligi Raqamli texnologiyalardagi dasturiy ta'minotni o'rnatish, qayta o'rnatish, yangilash va modernizatsiya qiluvchi malakali ishchi kuchi bilan ta'minlanganligi
5	Kafolat	Ishtirokchi bajariladigan ishlar bo'yicha 1 yil kafolat bera olishi Ekspluatatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan texnik nosozliklarni kafolat muddati davrida bartaraf etishga kafolat berishi

6	Shartnomaga qo'yiladigan talablari	Shartnoma loyihasi o'zbek tilida taqdim qilinadi Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq bo'lishi talab qilinadi Avans to'lovlari 30%, bajariladigan ish yakunlari bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlar asosida qolgan 70% to'lov amalga oshiriladi
7	Bajariladigan ishlar ro'yxati va pirovard natija	Bajariladigan ishlar ro'yxati (nuqsonlash dalolatnomasi) ilova qilinadi Ob'yektda bajariladigan ishlar yakuni bo'yicha bajarilgan ishlarni tasdiqlovchi dalolatnoma bilan birgalikda belgilangan tartibda taqdim qilinishi shart
8	Qarshi tumanida joylashgan M 2-1 nasos stansiyasi va Nishon tumanida joylashgan M 2-2 nasos stansiyasi quvurlaridan chiqayotgan suv oqimini sarfini aniqlash uchun (7 dona) avtomatik moslamalarini o'rnatish ishlarida talablar	Yong'inlar, baxtsiz hodisalar, baxtsiz hodisalar paydo bo'lishining oldini olish, shuningdek, texnika xavfsizligi qoidalariga belgilangan tartibda rioya etish, eskirgan yoki buzilgan uskunalarni o'z vaqtida almashtirish yoki zarur ta'mirlash ishlarini amalga oshirish uchun elektr inshootlarining operatsion sinovlari zarur Operatsion sinovlarning natijalari aniqlangan kamchiliklar va nomuvofiqliklar texnik hisobotda qayd etiladi Olingan natijalar asosida kamchiliklarni bartaraf qilish bo'yicha tavsiyalar shakllantiriladi O'rnatiladigan uskunalarning holatini baholash

Tasdiqlangan tanlov xujjatlari buyurtmachi tomonidan joylashtiriladigan davlat haridlari bo'yicha <http://xarid.uzex.uz/> maxsus axborot portalidan yuklab olishlari mumkin.

ICHT va TIMB boshlig'i

NSEQ va MUTB boshlig'i

KQITE va D hamda ILB boshlig'i

X.Esankulov

Y.Mingboyev

Sh.Aliyev

ELEKTRON ENG YAXSHI TAKLIFLAR TANLOVIDA ISHTIROK ETISH UCHUN TAKLIFNOMA

Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi nomidan tanlovda ishtirok etishga tanlov ishtirokchilarini taklif etamiz va quyidagi ob'yekt bo'yicha tanlov taklifini taqdim etilishini so'raymiz.

Ob'yekt nomi: Qarshi tumanida joylashgan M 2-1 nasos stansiyasi va Nishon tumanida joylashgan M 2-2 nasos stansiyasi quvurlaridan chiqayotgan suv oqimini sarfini aniqlash uchun (7 dona) avtomatik moslamalarini o'rnatish.

Ob'yekt boshlang'ich narxi: 253 652 958 so'm. (QQS bilan)

Ishlarni tugallash muddati: 20 kalendar ish kuni.

Buyurtmachi: Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi (Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Talimarjon shahri Mustaqillik ko'chasi 5-uy.)

Moliyalashtirish manbasi: Mahalliy budget mablag'lari hisobidan.

Taklif etilgan shartlar bo'yicha murojaat bilan mahalliy va xorijiy tashkilotlari ishtirok etishlari mumkin.

Tanlovda ishtirok etishi uchun ishtirokchilarga quyidagi talablar qo'yiladi.

- fuqarolik-muomala layoqati va shartnoma tuzish vakolati:
- doimiy xodimlari, jumladan malakali energetik, elektrik, elektr sozlovchi, elektropayvandchi, muhandis-gidrotexnik, dasturchilarga muhandis, muhandis-texnik ega bo'lishi:
- ishlab turgan asosiy vositalari, shu jumladan ishlab chiqarish bazasi, mashina va mexanizmlariga ega bo'lishi:
- o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganligi (ko'rsatkichi 0,05 koeffitsientdan kam bo'lmagan):
- to'lovga qodirligi (ko'rsatkich 1,2 koeffitsientdan kam bo'lmagan):
- tanlov ob'yektiga o'xshash ob'yektlarda ishlaganlik tajribasi mavjudligi:
- bajarilgan ishlar, shu jumladan o'z kuchi bilan oldin bajargan ishlar hajmi haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish:
- ustav fondi miqdori to'g'risida ma'lumotlar:

Agar tanlov predmeti bo'lgan ish (xizmat) larni bajarish bilan bog'liq faoliyat qonun xujjatlariga muvofiq litsenziyalanishi zarur bo'lsa, tanlovda ishtirok etish uchun belgilangan tartibga asosan tegishli litsenziyaga ega bo'lgan tanlov ishtirokchilarga ruxsat etiladi.

Quyidagi tanlov ishtirokchilariga tanlov jarayonlarida ishtirok etishga ruxsat berilmaydi.

- qayta tashkil etilish (bo'linish, qo'shilish, tugatish yoki bankrotlik arafasida bo'lganlar.
- mol-mulki musodaraga olinganlar hamda muassislik kelishuv, moliyaviy ishtirok, xolding va boshqa shaklda ifodalangan bevosita tashkiliy-huquqiy yoki bir-biriga moliyaviy qaramligi mavjud tashkilotlar.

Ob'yekt bo'yicha tanlovga e'lon bergan vaqtida ishchilar soni va injener texnik xodimlar sonini to'liq ko'rsatilishi kerak. Mehnat daftarchalari va buyruq har bir ishchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bo'lishi kerak.

Eng yaxshi takliflarni tayyorlash va taqdim etish uchun kerakli barcha xujjatlar tanlov ishtirokchilari uchun yo'riqnomada aks ettirilgan.

Eng yaxshi takliflarni taqdim etishning oxirgi muddati 2022 yil "____" dekabr kuni portalda belgilangan muddatgacha quyidagi manzilda: Qarshi magistral kanalidan foydalanish boshqarmasi (Qashqadaryo viloyati Nishon tumani Talimarjon shahri Mustaqillik ko'chasi 5-uy.) Tel.: 75-512-67-09; 75-512-67-14.

Eng yaxshi takliflarni elektron tarzda tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab 5 (besh) ish kunidan kechiktirmay yuborishlari lozim.

**Qarshi magistral kanalidan foydalanish
boshqarmasi boshlig'i**



I. Kurbanov